## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yil uchun Qoraqalpoǵiston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 29 925,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yil bilan taqqoslaganda 4,0 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021-yil narxlarga nisbatan 112,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpoǵiston Respublikasining qo'shgan hissasi 3,4 % ga yetdi.



**2022- yil ushun iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari**

| | *Mlrd. so‘m* | | *O‘sish sur’atlari,* o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|---|---|---|---|
| | *2021- yil* | *2022- yil* | |
| **I. YAHM, jami** | **25 681,8** | **29 925,4** | **104,0** |
| *shu jumladan:* | | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 23 908,5 | 27 566,6 | 104,0 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 1 773,3 | 2 358,8 | 104,3 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **23 908,5** | **27 566,6** | **104,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **7 040,8** | **8 164,1** | **103,3** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **8 050,7** | **8 784,5** | **102,3** |
| sanoat | 6 127,0 | 6 499,7 | 100,6 |
| qurilish | 1 923,7 | 2 284,8 | 107,7 |
| **xizmatlar** | **8 817,0** | **10 618,0** | **106,0** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 210,0 | 1 437,0 | 104,8 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 534,5 | 1 857,1 | 118,5 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 6 072,5 | 7 323,9 | 103,0 |

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 15 249,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,6 % ga yuqoridir.

**Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari**

| | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|
| *Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM, ming so'm* | 13 264,7 | 15 249,4 |
| *Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM, o'sish sur'ati* | 106,2 % | 102,6 % |

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 92,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 7,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o`rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 29,6 % ni, sanoat tarmog'i 23,6 % ni, qurilish 8,3 % ni va xizmatlar sohasi 38,5 % ni tashkil qildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi**
*(jamiga nisbatan % da)*

| | *2021- yil* | *2022- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 93,1 | 92,1 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 6,9 | 7,9 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **29,4** | **29,6** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **33,6** | **31,9** |
| sanoat | 25,6 | 23,6 |
| qurilish | 8,0 | 8,3 |
| **xizmatlar** | **37,0** | **38,5** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 5,1 | 5,2 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 6,4 | 6,7 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 25,5 | 26,6 |

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi**
*(jamiga nisbatan % da)*







**Yalpi qo'shilgan qiymati** **Mahsulotlarga sof soliqlar**

2022- yil ushun YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 103,3 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 29,6 %), sanoatda – 100,6 % (23,6 %), qurilishda – 107,7 % (8,3 %), xizmatlar sohasida – 106,0 % ni (38,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 104,8 % (5,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,5 % (6,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,0 % dan (26,6 %) iborat bo‘ldi.

**YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari**
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*






YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i – 0,9 f.p. (2021- yilda – 0,9 f.p.), sanoat tarmog‘i – 0,2 f.p. (2021- yilda – 1,8 f.p.) va qurilish tarmog‘i – 0,6 f.p. (2021- yilda – 0,3 f.p.), xizmat ko‘rsatish sohasi - 2,0 f.p. (2021- yilda – 4,1 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2021- yilda – 0,5 f.p.)ga kamaydi.

**2022-yil ushun YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi**
*(jamiga nisbatan % da)*



2022-yilning YAHM deflyatori indeksi 2021-yildagi narxlarga nisbatan 112,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko’rsatkichlari xizmatlar sohasida – 113,6 % va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 112,3 % qayd etildi.

**YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha deflyator indeksi**
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*




**Kichik biznesning YAHMdagi ulushi**
*(jamiga nisbatan % da)*

2022- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 56,6 % ni tashkil qildi (2021- yilda – 56,3 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi-ning o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

